

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA DILFUZA ERGASHOVNA

**VIRTUAL HAMKORLIK MUHITIDA TALABALARNI OBYEKTGA
YO'NALTIRILGAN DASTURLASHGA O'RGATISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saidova Dilfuza Ergashovna

Virtual hamkorlik muhitida talabalarni obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga
o‘rgatish metodikasi..... 5

Сайдова Дилфуз Эргашовна

Методика обучения студентов объектно-ориентированному
программированию в совместной виртуальной среде..... 23

Saidova Dilfuza Ergashovna

Methodology for teaching students object-oriented programming in a virtual
collaborative environment..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA DILFUZA ERGASHOVNA

**VIRTUAL HAMKORLIK MUHITIDA TALABALARNI OBYEKTGA
YO'NALTIRILGAN DASTURLASHGA O'RGATISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Ped.3630 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat uinversitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndpi.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalı (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmurodov Abdulkamid Erkinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Seitnazarov Kuanishbay Kenesbaevich
texnika fanlari doktori, professor

Yusupov Davronbek Firnafasovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruychi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil " 162 " ✓ soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy). Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (162 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " " da tarqatildi.
(2025-yil " " dagi 162 -raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib sifatli bilim berish va sohalarda raqobatbardosh kadrlar faoliyatini ta'minlash maqsadida virtual ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish tadqiq etilmoqda. Bu borada, ta'lim tizimi rivojlangan AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda virtual ta'lim texnologiyalari, xususan, virtual hamkorlik muhitidan foydalanib ta'lim berish asosida talabalar o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish muammolari ta'lim tizimini raqamlashtirish bilan birga parallel tarzda rivojlanmoqda.

Dunyoda ta'lim jarayonini samarali va uzviy tashkil etishning eng ilg'or texnologiyalarini qo'llash asosida real vaqt rejimidagi virtual hamkorlikni qo'llash jarayoni amalga oshirilmoqda. Ayniqsa Google Colab, Google Meet, CodeSandbox, Collabedit va boshqa bir qator dasturiy vositalardan amaliyotda foydalanib, virtual aloqalarni ommalashtirish obyekti sifatida virtual hamkorlik muhitidan samarali foydalanish masalasini ilmiy hal etish zarur bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini real vaqt rejimidagi onlayn xizmat ko'rsatuvchi texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish maqsadida rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda filiallar, qo'shma fakultetlar, qo'shma ta'lim markazlar, xususiy institutlar tashkil etilib, ularning moddiy texnik bazasi yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "...ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish"¹ uchun virtual ta'lim muhiti, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish" kabi ta'lim dasturlarini tashkil etish vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari va 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyaları rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida masofaviy (yoki onlayn) ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, ommaviy onlayn ochiq kurs tizimlarida foydalanishga oid elektron ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bir qator muammolar bo‘yicha A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, F.M.Zakirova, U.Sh.Begimqulov, M.X.Lutfillayev, S.S.G‘ulomov, Sh.F.Madraximov, M.R.Fayziyeva, N.A.Kayumova, A.G‘.Hayitov, U.N.Taylakov, S.Q.Tursunov, T.Shoymardonov, U.M. Mirsanov, I.A.Yuldashev, T.N.Jo‘rayev, S.A.Panjiyev kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida talabalarni dasturlash ishlari bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlashda vizual dasturlash tizimlari va onlayn IDE texnologiyalaridan foydalanish masalalari V.B.Artemenko, I.A.Barkov, M.YE.Vayndorf-Sisoyeva, N.A.Goroxovskaya, N.Y.Koroleva, N.Karpitskiy, N.A.Nosov, A.N.Petrov G.A.Klyucharev, V.S.Efremov D.A.Yemelyanov, N.P.Mikula, D.V.Moglan, L.A.Mokretsova, A.N.Petrov hamda F.V.Shkarban kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar tomonidan ta’lim tizimida virtual hamkorlik muhitidan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, onlayn ta’lim resurslarini yaratish va qo‘llash usullari bo‘yicha D.V. Bayandin, Abayomi Baiyere, Hongxiu Li, Henni Breen, Elizabeth Hodge va Sharon Kibbe, Rosanna M. Guadagno, Katrin E. Allmendinger, M.Auer, G.Booch, R.Brady, C.Bravo, W.Chen, N.Ghani, N.Kock, E.Livia, D.Snowdon, T.Vens shuningdek, virtual muhitda obyektga yo‘naltirilgan dasturlash metodlari bo‘yicha K.P.Meher, V.Nguyen, R.Pecinovský, A.Robin, Sh.Deshpande va I.Sommerville kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oly ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasingin “O‘zbekiston oly ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” (2019-2022 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish jarayonida individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish;

virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirish;

talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni virtual hamkorlik muhitida o‘rgatish modelini ishlab chiqish;

talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni virtual hamkorlik muhitida talabalarning bilim darajasini eksperimental tekshirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta’limning bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalariga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni virtual hamkorlik muhitidan foydalanib o‘qitish jarayoni belgilangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universitetining 491 nafar respondent-talabasi ishtiroy etdi.

Tadqiqotning predmeti oliy ta’limning bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Dasturlash tillari” fanini virtual ta’lim muhitidan foydalanib o‘qitish mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Dasturlashga, pedagogika-psixologiyaga oid adabiyotlarni tadqiqot muammosi nuqtayi nazaridan o‘rganish va tahlil qilish, virtual hamkorlik muhiti va obyektga yo‘naltirilgan dasturlash bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlar bilan tanishish, talabalar faoliyatini kuzatish, ijtimoiy-pedagogik so‘rovnomalar o‘tkazish, pedagogik tajriba-sinovlarni amalga oshirish, hamda, uning natijalarini matematik-statistik metodlar orqali tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarga virtual hamkorlik muhitidan foydalanib obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatishning individual-psixologik xususiyatlari jamoaviylik, hamkorlik, virtuallik kabi kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida har bir talabaning shaxsiy o‘sishiga xizmat qiluvchi psixologik-barqaror o‘quv muhiti aniqlashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli pedagogik vositalar bilan boyitilgan ta’limiy mexanizmlar virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni samarali o‘rgatish uchun Google Colab, Codebunk, Collabedit bulutli dasturlash platformalarining konvertatsiya qilish imkoniyatini kengaytirish orqali ishlab chiqilgan;

talabalar bilan ishlashga (auditoriya va auditoriyadan tashqari) doir obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish modeli “o‘qituvchi-talaba-guruh” tizimining gorizontal (talabalar o‘rtasida) va vertikal (o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi) o‘zaro aloqalari Python dasturlash tili, Internet texnologiyalari, kompyuter, smartfon kabi zamонaviy qurilmalar asosida virtual hamkorlik muhitida takomillashtirilgan;

virtual hamkorlik muhiti (<https://www.virtual-hamkorlik.uz/>) orqali obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish mezonlari kompetensiyaviy yondashuv darajasini baholashga qaratilgan produktiv va reproduktiv baholash ko‘rsatkichlari hamda noan’anaviy baholash usullarini raqamlashtirishga ustuvorlik berish asosida dasturlash kompetensiyalarining chuqur va bosqichma-bosqich shakllanishini aniqlovchi baholash usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta’limi muassasalarining “5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Virtual ta’lim texnologiyasi

fanidan elektron o‘quv qo‘llanma” nomli o‘quv qo‘llanmada laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlangan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan.

virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni talabalarga o‘qitishda ularni bu muhitga moslashishi, hamkorlikda faoliyat olib borishi, o‘qitishning mazmun va metodlarini takomillashtirishga oid “Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash: innovatsion metodlar” nomli elektron dastur yaratilgan;

virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan “Virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlash” mavzusidagi elektron dastur yaratilgan (DGU-31426);

virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid elektron axborot resurslari real vaqt rejimida ishlovchi masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib yaratilgan va undan foydalanish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuvlar va usullar asosida ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi; pedagogik ta’lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari tomonidan e’tirof etilgan tadqiqot vazifalariga mos keluvchi ilmiy metodlarning qo‘llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor hamda sifat jihatidan ta’minlanganligi; tahlillar va tajriba-sinov ishlarining va olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi; shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarni virtual hamkorlik muhitidan foydalanib obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiqligining asoslanganligi va mavjud shart-sharoitlar aniqlanganligi; virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish metodikasini masofaviy ta’lim asosida takomillashtirish tamoyillarining shakllantirilganligi va asoslanganligi; talabalarni virtual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlash darajalariga qo‘yiladigan talablarning ishlab chiqilganligi; talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning konseptual, mazmun, texnologik va diagnostik komponentlarini virtual hamkorlik muhiti bilan birgalikda o‘qitish modelining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalar uchun obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni virtual hamkorlik muhitidan foydalanib o‘qitish mazmunining blok-modulli strukturasi ishlab chiqilganligi; obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning virtual hamkorlik muhiti bilan integratsiyasini amalga oshiradigan kurs dasturining ishlab chiqilganligi; virtual hamkorlik muhiti asosida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitishning tashkiliy shakllari va usullari kombinatsiyasi asoslanganligi; talabalar uchun virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarni virtual hamkorlik muhitida obyektga yo'naltirilgan dasturlashga o'rgatishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingen natijalar asosida:

talabalarga virtual hamkorlik muhitidan foydalanib obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rgatishning individual-psixologik xususiyatlari jamoaviylik, hamkorlik, virtuallik kabi kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida har bir talabaning shaxsiy o'sishiga xizmat qiluvchi psixologik-barqaror o'quv muhitini aniqlashga hamda talabalar bilan ishlashga (auditoriya va auditoriyadan tashqari) doir obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rgatish modeli "o'qituvchi-talaba-guruh" tizimining gorizontal (talabalar o'rtasida) va vertikal (o'qituvchi-talaba o'rtasidagi) o'zaro aloqalari Python dasturlash tili, Internet texnologiyalari, kompyuter, smartfon kabi zamonaviy qurilmalar asosida virtual hamkorlik muhitiga oid tavsiyalar Qarshi davlat universitetida AIF 2/17 raqamli "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar" (2019-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 11-sentabrdagi 11-05-4916/04 son ma'lumotnomasi). Natijada obyektga yo'naltirilgan dasturlashni talabalarga o'rgatishning kompetensiyaviy yondashuvlarini tahlil qilishga erishilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli pedagogik vositalar bilan boyitilgan ta'limiy mexanizmlar virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo'naltirilgan dasturlashni samarali o'rgatish uchun Google Colab, Codebunk, Collabedit bulutli dasturlash platformalarining konvertatsiya qilish imkoniyatini kengaytirish orqali ishlab chiqilishini asoslashga oid taklif va tavsiyalar "Pedagogik dasturiy vositalardan laboratoriya ishlari" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagagi 233-son buyrug'i; 233-0365-son guvohnomasi). Natijada mazkur o'quv qo'llanma asosida talabalarga obyektga yo'naltirilgan dasturlashni virtual hamkorlik muhitida o'rgatish modelining mazmunini boyitishga erishilgan;

virtual hamkorlik muhiti (<https://www.virtual-hamkorlik.uz/>) orqali obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rgatish mezonlari kompetensiyaviy yondashuv darajasini baholashga qaratilgan produktiv va reproduktiv baholash ko'rsatkichlari hamda noan'anaviy baholash usullarini raqamlashtirishga ustuvorlik berish asosida dasturlash kompetensiyalarining chuqur va bosqichma-bosqich shakllanishini aniqlovchi baholash usullarini takomillashtirishga doir takliflarda bajarilgan OT-Atex-2018-546 raqamli "Android va IOS operatsion tizimlar uchun mobil ilovalar yaratish" (2018-2020 yy.) amaliy loyihasini bajarilishida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 11-sentabrdagi 11-05-4916/04 son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning bilim darajasini "Tartibla", "Test", "Virtual muhokama" baholash usullariga ustuvorlik berish asosida eksperimental tekshirish imkonini kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchhliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Virtual hamkorlik muhitida talabalarga obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim jarayonida virtual hamkorlik muhitidan foydalanishning bugungi holati, unda talabalarga dasturlashning obyektga yo'naltirilgan qismini o'qitishning samaradorligini ta'minlashning metodik ta'minoti ishlab chiqilib, mazkur modeldan foydalanib virtual hamkorlik muhiti va uni oliy ta'limga tatbiq etishning tashkiliy-uslubiy tamoyillari, o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari ko'rsatib berildi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida virtual hamkorlik muhiti orqali o'qitishni elektron ta'lim resurslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois biz "virtual hamkorlik muhitidagi ta'lim" tushunchasi ma'lumotlar va bilimlar bazasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq tizimlariga oid texnik-dasturiy vositalardan birgalikda foydalangan holda tashkil etilgan maqsadli ta'lim tushunchasini tasavvur qilishimiz mumkin.

Keyingi yillarda zamonaviy dasturlash tizimlari va texnologiyalari bilan ishlashdagi eng samarali uslubiy yondashuvlardan biri – bu obyektga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, u jamiyatimizdagi dasturlash sohasiga oid ko'plab firmalar va yirik dasturlash jamoalarining standart mexanizmiga aylanib ulgurdi. Obyektga yo'naltirilgan dasturlash (OYD) texnologiyasini qo'llab-quvvatlovchi dasturiy modullar bugungi kunda professional dasturlash tizimlarining deyarli barchasi tarkibiga kiritilgan. Ushbu uslub tashkiliy innovatsiyalar bilan birgalikda dastur sifatini, individual dasturchining mahsuldarligini va dasturchilarning jamoa bo'lib ishlash samaradorligini keskin oshirganligi sir emas. Shuning uchun ham OYD texnologiyasi oliy ta'lim muassasasi (OTM) bakalavr ta'lim yo'nalishlaridagi "Informatika o'qitish metodikasi", "Amaliy matematika" va shunga o'xshash aniq hamda tabiiy fanlarga oid o'quv rejalarining ajralmas qismiga allaqachon aylanib ulgurgan.

Lokal yoki global tarmoq negizida masofadan turib real vaqt rejimiga asoslangan onlayn ta’limni amalga oshirishda virtual hamkorlik muhitidan foydalanishning o‘ziga xos moslashuvchanlik, modullilik, iqtisodiy tejamkorlik, interfaollik, mahsuldarlik, samaradorlik, motivatsiya berish va individuallashtirish kabi tamoyillarining mavjudligi aniqlandi.

Virtual muhit – bu mavjud bo‘lmagan ammo raqamli texnologiyalar, kompyuter tizimlari, bulutli platformalar yoki maxsus dasturiy ta’minot orqali yaratilgan sun’iy muhittir.

Virtual hamkorlik muhitida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar muloqotidagi interfaollik darajasini oshirish “o‘qituvchi – talaba – guruh” tizimida kommunikativ aloqalarning qanday yaratilganligiga bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qituvchining metodik jihatdan sa’y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv bilan ijtimoiy tarmoqlar nazariyasining formalizmlari, xususan, kuchli va zaif aloqalar, gorizontal va vertikal aloqalar deb ataluvchi tushunchalar qo‘llaniladi.

Agar bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini obyektga yo‘naltirilgan dasturlash bo‘yicha o‘qitish obyektga yo‘naltirilgan loyihalash asosida amalga oshirilsa, u holda bu ularning quyidagi sohada tayyorgarlik darajasini oshiradi: obyektlar sinflari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni izlash jarayonini keyinchalik ularni dastur kodiga kiritish bilan amalga oshirish; obyektlar sinflari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni vizual tasvirlash; modellashtirish tili (masalan, UML) va obyektga yo‘naltirilgan loyihalash vositalaridan foydalangan holda obyektga yo‘naltirilgan dastur kodini yaratishni avtomatlashtirish.

OYD texnologiyalari – bu, dasturiy ta’minotlarning inqiroziga javob sifatida yuzaga kelgan dasturlash texnologiyalari hisoblanadi. Bu inqirozga sabab shunda ediki, strukturali dasturlash metodlari murakkablik darajasi borgan sari ortib borayotgan masalalar uchun dasturiy ta’minot yaratish imkonini bera olmay qoldi. Buning natijasida turli dasturiy-amaliy loyihalarni bajarish rejalari buzildi, qilinayotgan xarajatlar esa belgilangan budgetdan ortib ketdi, dasturiy ta’minot o‘z funksionalligini yo‘qotdi va xatoliklari ortdi.

Virtual hamkorlik muhiti (VHM) deganda, internet texnologiyalari asosiga qurilgan shunday virtual fazo tushuniladiki, unda insonlar bir-birlari bilan real vaqt rejimida o‘zaro onlayn suhbatlar qurishi, u yoki bu virtual obyektlar bilan aloqaga kirishishi mumkin bo‘ladi.


Har bir VHM ma’lum bir dasturiy ta’minot bazasida hosil qilinadi va ular bir-biridan 3D va 2D o‘lchamdagи virtual borliq elementlarini va hatto matnga oid ishchi sohani aks ettira olish qobiliyati bilan o‘zaro farqlanadi.

Virtual hamkorlik muhiti, bir necha o‘zaro aloqada bo‘lgan odamlarning bir yoki bir necha virtual platformalarda hamkorlik qilishini ta’minlaydigan bir tizimdir. Bu, o‘zaro aloqalarni boshqarishni va barcha huquqlarini va xizmatlarni virtual ravishda almashishni osonlashtiradi. Virtual hamkorlik muhiti, boshqa holda fizik hamkorliklar kerak bo‘lgan muammolarni hal qilishga imkon beradi, chunki odamlar virtual platformalar orqali bir-biriga yordam berish, yaratish, tahlil qilish va aloqa o‘rnatishlari mumkin.


Virtual hamkorlik muhiti, dunyo bo‘ylab sodda va samarali aloqalar o‘rnatishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul yuqori sifatli xizmatlarni ko‘rsatish, doimiy aloqalar, munosabatlar va fikrlashni yaxshilashga imkon beradi.

VHMdagi ta’lim mazmuni asosan talaba-o‘qituvchi yoki talaba-talaba hamkorligidagi aqliy mehnat mahsuliga asoslanadi, chunki muammolarni ular birgalikda hal qilish yo‘llarini izlaydilar va zarur bo‘lganda har qanday murakkab dasturiy mahsulotlarni birgalikda yaratadilar.

O‘qituvchi administratorlar yordamida bir vaqtning o‘zida ikkita va undan ortiq talabalari yoki talabalar jamoasi bilan onlayn mashg‘ulot olib borishi mumkin (1-rasmga qarang). Xuddi shuningdek, administratorlar yordamida texnik va dasturiy vositalar imkoniyatidan kelib chiqib, virtual hamkorlik muhitidagi o‘quv mashg‘ulotini bir nechta OTMlar o‘rtasida tashkil etish ham mumkin. Ta’kidlash joizki, bunda administratorning o‘zi ham malakali o‘qituvchilar toifasidan bo‘lishi maqsadga muvofiq (2-rasmga qarang).



1-rasm. O‘qituvchining virtual muhit yordamida 2 ta OTM talabalari jamoasi bilan mashg‘uloti



2-rasm. O‘qituvchining virtual muhit yordamida bir nechta OTM talabalari jamoasi bilan mashg‘uloti

Yuqoridagi rasmlarda ifoda etilgan kuchli aloqalar, asosan, guruh yoki jamoadagi talabalarning bevosita o‘zaro muloqotida, bir universitetdagi talabalar va o‘qituvchining o‘zaro hamkorligida, shu jumladan, onlayn ta’lim jarayonidagi turli universitetlar o‘qituvchilari va administratorlari o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Rasmlar orqali ifoda etilgan kommunikativ aloqalarni virtual hamkorlik muhiti orqali o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro muloqotlarini tashkil etish modeli deb qarash mumkin.

Tadqiqot davomida o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro kommunikativ aloqa variantlaridan tashqari, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash mavzularini virtual hamkorlik muhitida o‘rganishning bir nechta variantlarda amalga oshirish mumkinligi asoslab berildi. Ular quyidagilar:


1-variant. Nazariy o‘quv materillarini onlayn muhitda o‘zlashtirish. Bunda talabalar obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid nazariy materiallarni onlayn muhitda o‘rganadi. Ular 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linib, ajratilgan vaqt davomida materiallarni avval yakka tartibda o‘rganadilar, keyin esa, guruhda muhokama qiladilar (har bir talaba savolga javob berishi va javobiga izoh berishi, so‘ng guruh bo‘yicha yagona javob qabul qilinishi nazarda tutiladi). O‘qituvchi

individual javoblar uchun ham, guruhdan olingan javoblar uchun ham baholashlarni amalga oshiradi hamda qo‘yan bahosiga albatta, izoh berishi kerak bo‘ladi.

2-variant. Onlayn muhitda loyiha yaratish. Bunda talabalar obyektga yo‘naltirilgan dasturlash orqali hal etiladigan yaxlit loyihani onlayn muhitida ishlab chiqadilar. Ular guruhlarga bo‘lingan holda har bir guruh uchun loyihaga oid topshiriqlarni qabul qilib oladilar, guruh a’zolari loyihaga nisbatan talablarni tuzadi va talablar ro‘yxatini shakllantirib, har bir talab uchun zarur bo‘ladigan vaqt taqsimotini aniqlab chiqishadi va o‘qituvchiga taqdim etishadi. O‘qituvchi taqdim etilgan fikr va takliflarni umumlashtirib, loyiha uchun aniq vaqtini belgilab beradi va belgilangan muddatda loyiha ssenariysini amalga oshirish vazifasini qo‘yadi. Loyihani topshirish muddati uchun uning hajmi va murakkablik darajasiga qarab bir yoki bir nechta mashg‘ulot belgilanishi mumkin.

3-variant. Amaliy ishlarni onlayn muhitda bajarish. Amaliy tipda berilgan topshiriqlarni muhokama qilish va optimal hal etish orqali dasturiy mahsulotlarni takomillashtirish bo‘yicha dasturchilar uchun ochiq ijtimoiy tarmoq bazasi sanalgan GitHub bazasida joylashtirilgan tayyor dasturlardan bepul foydalanish imkoniyati yaratildi. Bunda talabalar o‘zlariga berilgan har bir individial topshiriqlarni onlayn bajarishlari uchun GitHub bazasi va boshqa turli ko‘rinishdagi onlayn ma’lumotnomalardan samarali foydalanishlari amalga oshirildi.

Virtul hamkorlik muhitida o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zoro muloqot modeli asosida quyidagi kompetentliklarning shakllanishi aniqlandi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitishda rivojlanadigan kompetentliklar

Shunday qilib, talabalarga virtual hamkorlik muhitidan foydalanib obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatishning individual-psixologik xususiyatlari jamoaviylik, hamkorlik, virtuallik kabi kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida har bir talabaning shaxsiy o‘sishiga xizmat qiluvchi psixologik-barqaror o‘quv muhiti aniqlashtirildi.

Psixologik-barqaror o‘quv muhiti – bu talabalarning ruhiy holati, hissiyati va xavfsizligini inobatga olgan holda yaratilgan, virtual hamkorlik asosida talabalarning individual-psixologik xususiyatlari jamoaviylik, hamkorlik, virtuallik kabi kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida yaratilgan, qulay va ijobiy muhitdir. Aniq fanlar yo‘nalishi talabalariga virtual hamkorlik muhitidan foydalanib obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanib o‘rgatishda ularda dasturlash, algoritmik, matematik, texnik vositalar bilan ishslash, kommunikativ, ijtimoiy kompetentliklarining rivojlanishiga erishildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga **“Virtual hamkorlik muhiti asosida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatish metodikasi”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda virtual hamkorlik muhitini tashkil etuvchi dasturiy vositalar va ularning qiyosiy tahlili, virtual hamkorlik muhitini tashkil etuvchi dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi, virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid mashg‘ulotlar tashkil etish metodikasi ochib berilgan.

Ta’limni masofaviy boshqarish tizimi sifatida LMS o‘qituvchiga o‘zining nazariy va amaliy tipdagi elektron o‘quv materiallarini ma’lum tartib asosida joylashtirish, o‘quv jarayonini boshqarish, shu jumladan, talabalarga berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro muloqoti va hamkorlikdagi boshqa o‘quv faoliyatlarini onlayn tashkil etish imkonini beruvchi kuchli dasturiy vositalarga ega platformadir.

Biroq talabalarga VHMda dasturlash usullarini o‘rgatish maqsadiga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini LMS va Internetning Google Disk, Google Docs, Google Colabratoty, Zoom, Google Meet, Skype, Discord va shunga o‘xshash turli xizmatlari integratsiyasi asosida yanada samarali tashkil etish mumkin. Masalan, Internetning Google Docs servisi matn, jadval, taqdimot tipidagi elektron hujjatlarni yaratish va formatlash bilan birga ularning ustida boshqa foydalanuvchilar bilan hamkorlikda tahrirlash ishlarini olib borishga imkon beradi. Pedagog bu servisdan foydalanib o‘zining yangi o‘quv materiallarini bayon qilishi, qo‘yilgan masala va uning yechimi bo‘yicha talabalar bilan hamkorlikda muhokamalar o‘tkazishi mumkin.

Shuningdek, ovozli onlayn mashg‘ulotlarni o‘tkazishda Discord, Skype, Zoom, Google Meet kabi turli servislardan foydalanish orqali talabalarga o‘zining savollarini onlayn-mashg‘ulot ishtirokchilari o‘rtasida muhokamaga tashlash yoki o‘quv materialining mazmuni bo‘yicha o‘z qaydlarini hujjatga ilova qilish imkonini yaratib berish mumkin.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rganish uchun “faoliyat ko‘rsatuvchi” dasturiy vositalardan foydalanildi. virtual hamkorlik muhitida “faoliyat ko‘rsatuvchi” dasturiy vositalar quyidagilardan iborat:

Teletype for Atom - kod muharriri Linux, macOS, Windows operatsion tizimlari uchun GitHub tomonidan ishlab chiqilgan bepul va ochiq manbali muharrir. AWS *Cloud9*: ushbu platforma Amazon kompaniyasiga tegishli bulutli IDE (Integrated Development Environment – dasturlar yaratishga oid integrallashgan muhit) bo‘lib, unda 40 dan ortiq tillar, jumladan C, C++, Java Script, Go, Java, PHP, Python va Ruby kabi dasturlash tillari bilan ishslash mumkin. Cloud9 o‘z terminaliga ega bo‘lib,

AWS buyruqlar satrini va turli buyruqlarni tez bajarishni osonlashtiruvchi dasturlash muhitini mujassamlashtirgan.

Visual Studio Live Share - Code muharriri Visual Studio Live Share plagini orqali bir loyihani hamkorlik asosida amalga oshirish uchun umumiyluxsat jarayoni tashkil etiladi.

CodeShare - plugin yordamida 80 dan ortiq tillarda virtual hamkorlik qilish mumkin. Videochat orqali juda sifatli axborot almashish imkoniyati mavjud.

Codebunk – real vaqt rejimida hamkorlikda ishlash imkonini beruvchi, registratsiyasiz holatda hamkorlikka chaqirilgan foydalanuvchilarga “Read Only” rejimida ishlash huquqini taqdim etadi. Video va matnli chatlardan samarali foydalanish mumkin.

Google Colab – Python tilida yozilgan dastur loyihasini Jupyter Notebook orqali hamkorlikda qayta ishlashga mo‘ljallangan bulutli muhit bo‘lib, unda oddiy dasturlardan tashqari mashinaviy o‘qitish, matn hamda ma’lumotlarning intellektual tahlili va boshqalarga oid dasturlarni ham yaratish mumkin. Google Colab muhitida yozilgan kodlar asosan Google Drive diskida saqlanadi. Colab yordamida Python kodini to‘g‘ridan-to‘g‘ri brauzerda yozib, kodning natijasini shu yerning o‘zida ko‘rish mumkin, faqatgina buning uchun Google akkauntiga kirish kifoya.


Tahlil etilgan bu platformalardan Google Colab tizimining foydalanuvchiga keng imkoniyatlarni taqdim etishi aniqlandi. Google Colab tizimida foydalanuvchilarni qo‘shish, talabalarni o‘qitish va o‘zlashtirishini nazorat qilish, undan foydalanish, bilimlarni og‘zaki, yozma va test usullarida baholash, o‘quv yangiliklari, talabalarni dasturlarini yuklash, jo‘natish va yuklab olish, qabul qilish, ichki tezkor xabar almashish, munozaralar uchun Google Meet dasturini orqali sinxron ta’limni tashkil etish kabi jarayonlarning amalga oshirilishini ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy dasturiy vositalar tahlili, yaratilgan dasturiy vositalardan foydalanib, darslarni individuallashtirish, modellashtirish, loyihalashtirish, “blended learning”, “flipped classroom”, “Sirli jumla”, “Zaif bo‘g‘in” texnologiyalari asosida tashkil etish metodikasi, mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni yoritilgan. Tadqiqot doirasida talabalarga obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatishning takomillashtirish modelining tuzilmasi ishlab chiqildi (4-rasmga qarang).

Modelning tashkiliy komponentida o‘quv jarayonini tashkil etish jarayoni keltirilgan bo‘lib, unda ta’lim shakllari (ma’ruza, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va talabaning mustaqil ishi), ta’lim texnologiyalari (masofali o‘qitish, virtual o‘qitish, modulli o‘qitish) va o‘qitish vositalari (dasturiy, texnik, metodik va platformalar) ko‘rsatib o‘tilgan.

Modelning mazmunli komponentida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni talabalarga o‘rgatish uchun virtual muhit tashkil etiladi.

Bunda virtual muhitga talabalar kirishi uchun o‘qituvchi havola (link)ni telegram yoki elektron pochta (e-mail)ga jo‘natadi. Ishtirokchilar IT-texnologiyasi (Internetga ulangan kompyuterlar) va smartfonlar, planshetlar yordamida bog‘lanishlari mumkin.



4-rasm. Virtual hamkorlik muhitida obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘rgatishni takomillashtirish modeli

Modelning natija komponentida baholash darajalari qoniqarli-“3”, yaxshi-“4”, a’lo-“5” va “An’anaviy-faoliyat”, “Motivatsion-shaxsiy”, “Faol-ijodiy”, “Kognitiv” mezonlari bilan belgilanadi.

Tavsiya etilayotgan modelda talabalarning auditoriyada va auditoriyadan tashqaridagi o’quv faoliyatini muammoli ta’lim texnologiyalari hamda veb sayt muhiti asosida tashkil etish taklif etilgan. Bularni amalga oshirishda talabalar va professor-o’qituvchilar uchun global tarmoqda metodik ta’minot tizimini hosil qilish talab etiladi. Shu bois, tadqiqot doirasida global tarmoqning <https://virtual-hamkorlik.uz> manzilida ta’limiy veb sayt yaratildi va unga talabalarning algoritm tuzish va dasturlashtirish ko’nikmasini rivojlantirishga mo’ljallangan didaktik veb sayt muhiti shakllantirildi.

Ushbu veb sayt muhitiga joylashtirilgan didaktik veb sayt muhiti talabalarga mustaqil ravishda algoritmlashni va dasturlashni o’rgatishga hamda o’zini-o’zi baholashga mo’ljallangan. O’zini-o’zi baholashga mo’ljallangan elektron ta’lim resurslari dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillari asosida yaratilgan bo’lib, bunda to’rt xil darajadagi, ya’ni reproduktiv, variativ, qisman izlanishli va kreativ topshiriqlar mujassamlashgan.

Biz virtual hamkorlik muhitini yaratish uchun ta’limiy veb saytimiz (<https://virtual-hamkorlik.uz>)ga Google Colab tizimini interfaol imkoniyatining yuqori bo’lganligi uchun pladin sifatida o’rnatib, uni metodikasini ishlab chiqdik.

Shuningdek, ushbu bobda Google Colab tizimidan foydalanib, obyektga yo’naltilgan dasturlash materiallarini taqdim etish, talabalar o’zlashtirishini nazorati, foydalanuvchilar va ular o’rtasida ma’lumot almashinish qismlaridan tashkil topish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Mazkur yaratilgan veb sayt ta’lim resursi tarkibida talabalarning algoritm tuzish va dasturlashtirish ko’nikmasini rivojlantiruvchi kontentlar, shular qatorida mantiqiy ketma-ketlik asosida tanlab olingan masalalar uchun Python dasturlash tillaridagi dastur kodlari o’rin olgan. Ishlab chiqilgan ta’lim resursi chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi algoritmlar, funksiyalar, satrlar va fayllar bilan ishlashga doir bo’limlarga ajratilgan. Har bir bo’limdagi dasturlar tizimli va izchillik tamoyillari asosida shakllantirilgan.

Mazkur ta’limiy veb sayt talabalarni turli masalalarning algoritmlarini bloksixema ko’rinishda tasvirlashga o’rgatish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu ta’limiy veb saytning qulayligi shundaki, bunda turli chizmalarini ketma-ketlik tartibida joylashtirish uchun samarali hisoblanadi. Bu professor-o’qituvchilar uchun mashg’ulotlarni tashkil etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu <https://virtual-hamkorlik.uz> ta’limiy veb saytda foydalanilgan bir qancha o’yin texnologiyalari va metodik ishlanmalar talabalarga ijobiy, ijodiy motivatsiya berib, bevosita va bilvosita munosabatlarni yangilaydi. Talabalar, umuman har bir inson faoliyat jarayonida ko’proq o’yinlarga muhtoj. Doimiy talablar davomiyligi natijasida tartiblar zerikarli bo’lib qoladi, lekin bu ularning zarurligini yo’qotmaydi. Mazkur jarayon muntazam o’yinlar, treninglar bilan sayqallansa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asosiysi, talabalarning ruhiy va hissiy holati ko’tariladi.

Talabalar tomonidan mustaqil ish topshiriqlarini samarali va mazmunli bajarilganligi, o'zlashtirilgan bilim hamda ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini darajasini aniqlash maqsadida har bir mavzuga mos veb kvest ishlab chiqilgan.

